

---

“Solijonobod” mahallasida 6 kilometr masofada optik tolali kabel tortish ishlari olib borilmoqda

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi Farg‘ona filiali Qo‘sh tepa telekommunikatsiya bog‘lamasi tomonidan joriy yilning 1-choragiga mo‘ljallangan telekommunikatsiya tarmoqlari dasturiga asosan “Solijonobod” mahallasiga 6 kilometr optik tolali kabel tortish ishlari rejalashtirilgan.

Ushbu dasturga ko‘ra mahallaning Ufq ko‘chasiga 2 kilometr masofada kabel tortish ishlari boshlandi. Rejaga ko‘ra, 25 ta xonadon zamonaviy internet hamda IPTV xizmatlari bilan ta‘minlandi.

2025-01-23 08:42:47